Коррупция – тараққиёт душмани

Пушаймонлик жазодан озод этмайди

Туман солиқ инспекциясида вилоят солиқ бошқармаси шахсий хавфсизлик бўлими томонидан профилактик тадбир ташкил этилди.

Шу муносабат билан ўтказилган йиғилишда республика Солиқ қўмитаси Ҳайъатининг навбатдаги кенгайтирилган мажлисида “Солиқ тизимида коррупцияга қарши курашиш, унинг олдини олиш ва меҳнат интизомига риоя қилиш тўғрисида” берилган топшириқлар ижроси ҳақидаги масала муҳокама қилинди. Дастлаб солиқ ходимларига яратилаётган шарт-шароитлар ва берилаётган кенг имкониятлардан унумли фойланган ҳолда вазифасига масъулият билан ёндошиш, касб этикаси ва умумбелгиланган одоб-ахлоқ қоидаларига риоя этиш ҳамда давлат хизматчиси деган шарафли номга мутаносиб бўлиш кераклиги тушунтирилди.

Тадбир жараёнида солиқ ходимлари учун “Ишонч ва нафс чегараси” номли фильм намойиш этилди. Фильмда ҳар бир ножўя хатти-ҳаракатнинг ниҳояси пушаймонлик билан якунланиши, шу боис коррупциявий ҳуқуқбузарликларга йўл қўймаслик кераклиги талқин этилган.

Акмал НУРМАМАТОВ, туман солиқ инспекцияси бошлиғининг ўринбосари.

Замондошларимиз

ТИНИБ-ТИНЧИМАС РАИСА

Кейинги бўлиб ўтган сайловда фуқаролар йиғини вакиллари овоз бериш бюллетенини қўлга олганда, улардан аксариятининг фикри бир жойдан чиққанлиги маълум бўлди. Номзодлар орасида Саида Кенжаева энг кўп овоз олиб “Меҳригиёҳ” маҳалла фуқаролар йиғини раисаси этиб сайланди.

Саида Кенжаева бу муваффақиятга ўз-ўзидан эришгани йўқ, албатта. Ундаги фидойилик фазилати, ишбилармон ва тадбиркорлиги, эл корига камарбасталиги, ширинсўз ва муомала маданияти, ташкилотчилиги сабаб эл орасида ҳурмат-эҳтиром қозонди. Сайловдаги ютуқ шунинг натижаси эканлиги бунинг исботи.

Раисанинг бир кун бўлса-да, тиними йўқ. Эринмайди, маҳаллани кезади, ҳар бир хонадоннинг аҳволидан хабарлашади. Айниқса, кам таъминланган, ногирони ва бемори бор хонадонларга алоҳида эътибор билан қарайди. Имкони борича ёрдам қўлини чўзади. Ободонлаштириш ишларига доимо бош-қош. Маҳалла фаолларини бириктириб, ҳашарлар уюштиради, энг муҳими, одамларни муштарак мақсадлар сари ўз ортидан эргаштиради.

Маҳаллада ҳозирча 1249 та оила бўлиб, улардаги 6889 нафар аҳоли 1085 та хонадонда истиқомат қилишади. Жумладан, 153 нафар турли тоифадаги ногиронлар, 35 нафар боқувчисини йўқотган оилалар бор. 170 нафар хотин-қизлар “Аёллар дафтари” ҳисобига киритилган. Қонунчилигимиз ва белгиланган дастурларга мувофиқ уларга моддий кўмак берилмоқда.

Шунингдек, фуқаролар йиғини таклифи билан маҳалладаги 2 та оилага касаначиликни йўлга қўйиш учун банкдан 100 миллион сўмдан имтиёзли кредит маблағи ажратилди. Қўлида ҳунари бор кам таъминланган ёш аёллардан 23 нафарига тикув машинкалари, 10 нафар ишсиз йигитларга мотороллёрлар берилди. Айни пайтда улар фойдали меҳнат билан банд. Бундан ташқари маҳалланинг Мустақиллик кўчасида яшовчи, боқувчисини йўқотган II гуруҳ ногирони бўлган фуқарога 3 хонали замонавий уй қуриб бериш ниҳоясига етиш арафасида.

Маҳаллада келажагимиз эгалари бўлган болажонларнинг таълим-тарбиясига алоҳида эътибор қаратиляпти. Мактаб ёшидаги ўғил-қизлар ҳудуддаги барча қулайлик ва имкониятга эга бўлган билим даргоҳларида таҳсил олмоқда. Кичкинтойлар эса шарт-шароитлар муҳайё этилган 7 та болалар боғчаларида тарбияланишяпти. Уларга малакали ва тажрибали ўқитувчи ҳамда тарбиячилар сабоқ беришаяпти. Маҳалла раисаси Саида Кенжаева бу таълим муассасаларига ҳам тез-тез ташриф буюриб, ўқув-тарбия ишларининг бориши билан хабарлашиб туради.

Бир сўз билан айтганда, раиса Саида Кенжаева маҳаллада “еттилик”ка бош бўлиб, даврмизнинг тиниб-тинчимас, жонкуяр раҳбар аёлларидан биридир.

Йўлдош АБРАЕВ, “Меҳригиёҳ” маҳалла фуқаролар йиғини кексалар маслаҳат гуруҳи раиси.

Ўсимликлар карантини ва ҳимояси

Зарарли организмларнинг ривожланиши

уларни башорат қилишда кузги ва баҳорги кузатувларни ўтказиш

Дунё давлатларида ҳар йили зарарли организмлар (зараркунанда, касаллик ва бегона ўт) туфайли ҳосилнинг қарийб 35 фоизи нобуд бўлади. Ўсимликларни ҳимоя қилишдаги асосий вазифа ҳосилни сақлаб қолиш ёки нобудгарчилигини камайтиришдан иборатдир.

Республикамиздаги мавжуд экологик шароитда қишлоқ хўжалик экинларининг ҳосилдорлиги камайиб боришида, сифатсиз маҳсулот етиштиришда зарарли организмлар катта роль ўйнайди. Ўсимликларни зарарли организмлардан ҳимоялаш ҳамма вақт долзарб муаммо ҳисобланади. Об-ҳаво, иқлим шароити кескин ўзгариши зараркунанда, касалликлар ва бегона ўтларни ривожланиши ва тарқалишига сезиларли таъсир кўрсатмоқда. Оқибатда уларга қарши кураш чоралари ҳам ўзгариб боради ва янги ҳимоя тизимини ишлаб чиқиш зарурияти туғилмоқда.

Шунинг учун қишлоқ хўжалик экинларига зарарли организмларнинг таъсири, уларнинг ривожланиши, тарқалиши ва зарари экологик мониторинг тизимини илмий асосланган ҳолда яратишни тақозо этади. Мониторинг қилишнинг асосий вазифаси ўсимликларни ҳимоя қилишда минтақавий ва ҳудудлар миқёсида атроф-муҳит, агрометеорологик омиллар, экологик ўлчамлар ўзгариши ҳисобга олиниши зарур. Ўсимликларни ҳимоя қилиш мутахассислари, прогноз бўлими ходимлари, фитосанитар дала назорати Давлат инспекторлари ва агроном назоратчилар учун зарарли организмларни ҳисоб-китоб қилишда, қишлаш ҳолатини тўғри баҳолаши лозим.

Вазирлар Маҳкамасининг “Қишлоқ хўжалиги экинлари зараркунандалари, касалликлари ва бегона ўтларнинг тарқалиш майдонларини аниқлаш тартиби тўғрисида низомни тасдиқлаш ҳақида” 2018 йил 31 майдаги 405-сон қарорида зарарли организмларнинг тарқалиши ва ривожланишини қисқа, узоқ ва кўп йиллик прогнозлар ишлаб чиқиш белгилаб берилган. Ўсимликларни зарарли организмлардан ҳимоя қилишда зарарли организмлар тур таркиби, миқдори, ривожланиши, тарқалишини ўрганиш орқали келгусида қишлоқ хўжалиги экинлари хавфини олдини олиш учун мунтазам равишда ҳисоб ишларини олиб бориш керак бўлади.

1. Майдондаги зараркунандалар турлари ва уларнинг қишлаш учун қандай фазада эканлигини аниқлаш.

2. Зараркунандалар қишлаш учун қайси чуқурликда ва қандай ҳолатда жойлашганини билиб олиш.

3. Қишлашга кирган зараркунандалар сонини аниқлаш орқали, келгуси вегетация даврида улар қанчалик хавф туғдириши мумкинлигини прогноз қилиш.

4. Ер ковлаш натижаларига асосланиб, келгуси мавсумда зараркунандаларга қарши қандай профилактик ва кураш чораларини кўришни режалаштириш мумкинлиги.

Тупроқ ковлаш (қазиш) асосан учта усулда амалга оширилади. Кузги қазиш ҳаво ҳарорати зараркунандаларни турига қараб тупроқ ҳарорати 90С пасайганда олиб борилади (тупроқ музлашидан олдин, баъзан ўсимликлар вегетацияси вақтида ёки ҳосил йиғиш даврида). Бу қазиш ишларининг мақсади – майдонда ўсимлик зараркунандаларининг мавжудлигини аниқлаш учун қулай об-ҳаво (ёмғирсиз) шароитида ўтказилади.

Одатда, тупроқ ковлаш ишлари аҳоли пунктлари яқинида, уй паррандалари кириши мумкин бўлган жойларда амалга оширилмайди, чунки бундай ҳолатларда натижалар ишончли бўлмайди. Зараркунандаларнинг биринчи пайдо бўлишини аниқлаш учун типик жойларни танлаш жуда муҳим. Баъзан тупроқ ковлаш ишлари доимий кузатув нуқталаридан олиб борилади. Бу жараёнда зараркунандаларнинг биологик хусусиятларини билиш ва уларнинг қишлаш учун танлайдиган жойларида ковлаш ишларини амалга ошириш лозим. Кўпчилик ҳашаротлар қуруқ ва қуёшли жойларда қишлайди. Ковлаш ишлари ёки намуналар бошқа қишлов ўчоқлари бутун ҳудуди учун типик бўлиши керак. Тупроқ ковлаш ишлари прогнознинг муҳим амалиёт бўғини ҳисобланиб, қуйидагиларни аниқлашга қаратилган:

а) зараркунандалар турлари;

б) зараркунандалар сони (миқдори);

в) зараркунандалар ҳолати (патологик ҳолати).

Зараркунандаларни ҳисобга олиш шартли равишда қуйидаги гуруҳларга бўлинади:

1. Тупроқ ичидагиларни (раскопка) ҳисобга олиш.

2. Тупроқ сиртида ва ўсимлик қолдиқларидагиларни ҳисобга олиш.

3. Феромон тутқичлар, алдамчи емлар ва турли хил ҳашарот тутқичлар ёрдамида ҳисобга олиш.

4. Ўсимликлардаги зараркунанда ва касалликларни ҳисобга олиш.

Ж.МУРОДОВ, туман ўсимликлар карантини ва ҳимояси бўлимининг зарарли организмлар тарқалишини прогнозлаштириш ва мониторинг қилиш бўйича етакчи мутахассиси.

VATANNI ASRASH–INSONIY BURCH

Yer yuzidagi har bir jonzot tinch va osoyishta yashashi uchun u, eng avvalo, bir boshpana va uy-joyga ega bo‘lmog‘i lozim. Xususan, odam bolasining huzur-halovatda yashashi uchun ham. Xalq uchun esa Vatan zarur. Vatansiz xalq yashay olmaydi. Xalqning borligi, uning yashab qolishi uchun u o‘z Vataniga ega bo‘lsagina mumkin bo‘ladi.

Mehribon ona misoli bizni o‘z bag‘riga olgan O‘zbekiston atalmish yurtimizning oyoq osti qilinmasligi, bayrog‘imizning har zamon osmonimiz uzra sarbaland hilpirashi, duogo‘ylarimiz rizoligining bardavom bo‘lishi, ibodatlarimiz halovati, ko‘hna tuproqlarimiz ostida yotgan aziz avliyolarimiz ruhining shodligi, xalqimizning huzuri uchun jonajon Vatanimizga sadoqat bilan xizmat qilishimiz kerak. Zotan, uni ko‘z qorachig‘imizdek asrashimiz barchamizning bo‘ynimizdagi qarzimizdir.

Shu jihatdan mo‘min o‘z vatanini sevadigan, unga qalban bog‘langan, zarur bo‘lganda joni va molini ham Vatan uchun fido qilishdan tortinmaydigan insondir. Vatanparvarlik eng ezgu va oliy tuyg‘ulardan biridir. Kerak bo‘lganda Vatan uchun kurashish, uni himoya qilish bu bizga suyukli Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamdan qolgan qutlug‘ merosdir. Kishi o‘z yurtidan uzoqlashganda uni qo‘msaydi.

Insonning o‘z xalqiga bo‘lgan sadoqati va fidoyiligi Vatanini himoya qilishi, taraqqiy topib, har tomonlama mustahkam va qudratli bo‘lishi hamda xalqining tinch va farovon hayot kechirishiga imkoniyati darajasida hissa qo‘shishi bilan o‘lchanadi.

Bugun bizni bir-birimiz bilan bog‘lab turgan eng muhim rishtalar bu Vatanimiz va dinimizga bo‘lgan e`tiqodimizdir. Biz bu ikki masalada befarq bo‘lmasligimiz kerak. Aks holda kelajagimiz xavf ostida. Musulmonlar imoratning g‘ishtlaridek bo‘lib, bir-birlarining kamchiliklarini to‘ldirishlari darkor.

Xalqimizning birligi va hamjihatligi tufayli Vatanimiz yuksalib, davlatimiz quvvat topmoqda. Vatanga, millatga, azaliy e`tiqodimiz va milliy birligimizga putur yetkazuvchi buzg‘unchilarning so‘zlariga quloq solmaslik, Vatanimizni ma`nan va jismonan ulardan himoya qilmoqlik bugungi O‘zbekiston farzandining eng oliy burchidir.

Jahongir BEKMURODOV, DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchisi.

Erta turmush

Taqdirning mushti

Sovuq qish kunlarining birida Nazira opaning uyiga mehmonlar kelishdi. Chiroyli kiyinishgan aslzoda ayollar Nazira opaga o‘zlarini tanishtirib, sovchilikka kelishganini aytishdi. Mehmonlarga choy olib kirgan Zebo sovuq so‘zdan titrab ketdi, ko‘zlariga yosh keldi. Chunki u o‘rta maktabning yuqori sinfida o‘qiyotgan, hali bola edi. Kuyov bo‘lmish esa Zebodan o‘n yoshlar katta edi.

Otadan erta yetim qolgan Zebo bor mehrini o‘qishga bergandi. Maktabni tamomlab, oliy o‘quv yurtiga kirmoqchi bo‘lib yurgan Zebo jovdirab onasiga qaradi. Onasi qaynota- qaynonam bilan bir maslahat qilay, deb mehmonlarni shirin so‘z ila kuzatib qo‘ydi. Keyin Zeboning bobo-buvisining oldiga borib maslahat so‘radi. Ular esa: “O‘g‘limiz ko‘rmay ketdi, biz ko‘raylik nevaramizning to‘yini”, deb Zeboni turmushga berishga qaror qilishdi.

Zebo zor-zor yig‘ladi, lekin uning gaplariga hechkim quloq solmadi. O‘qimoqchiman hali deb yalinib-yolvordi. Buvisi esa “O‘qib shahar oberarmiding, bolam, turmushga chiq, onang ham seni uzatib elni oldidan o‘tsin”, deb urishib berdi. Zebo hechkim yordam bermasligini tushunib yetdi va Nazira opaning xonadonida to‘y bo‘ldi.

Endi ona suti og‘zidan ketmagan Zebo katta uyning kelinchagi bo‘ldi. U juda qiynaldi, qaynona- qaynotaga, erga, oiladagi hammaga xizmat qilardi. Sahar turardi, hovlilarni supurardi, hamma uchun choy tayyorlardi. Judayam ishi ko‘pligidan Zebo ulgurmas, chunki, u hali yosh edi. Ertalab uxlagisi kelar, lekin u endi kelin. Kelin erta turib, hovli supurishi kerak. Qaynota-qaynona kelindan ancha nolishardi: “Voy, qiziga uni o‘rgatmagan, buni o‘rgatmagan” deb. Har kuni urishar uyda janjal, to‘polon edi. Oradan oylar o‘tdi. Zeboni tug‘mas deb haydab solishdi. Hali o‘n gulidan bir guli ochilmagan juvon “Aybim nima? Qanday xato qildim?” deb yig‘lab o‘z uyiga qaytib bordi. Onasi yig‘lab kutib oldi.

Afsus, bu yosh turmushga berishning oqibati edi. Zeboning orzulari ushalmasdan poymol bo‘ldi. U hali o‘qishga kirib, o‘qituvchi bo‘lmoqchi edi. Onasi pushaymon bo‘ldi, lekin befoyda edi. Chunki, kech bo‘lgandi, kech…

Gulandom QODIROVA, Tong yulduzi mahallasi faoli.

Hamma bilishi kerak

Birinchi tibbiy yordam

Birinchi yordam – baxtsiz hodisalar ro‘y berganda, kishi shikastlanganda yoki to‘satdan kasal bo‘lib qolganda uning hayotini asrab qolish va yomon asoratlardan omon qolishi uchun ko‘rsatiladi. U tez va oddiy tadbirlar majmui bo‘lib shifokor yetib kelguncha yoki ehtiyojmandni yaqin oradagi tibbiyot muassasiga olib borguncha amalga oshiriladi.

Birinchi yordam o‘z-o‘ziga yoki boshqalar tomonidan (o‘zaro) ko‘rsatilishi mumkin. Shikastlangan odam jarohatini o‘zi bog‘lay olsa, zaharlanish alomati bo‘lganida, ko‘p suyuqlik ichib me`dani yuvish va qayt qilishga quvvati yetsa, o‘z-o‘ziga birinchi yordam ko‘rsatishi mumkin. O‘zaro birinchi yordam odatda boshqa kishi tomonidan ko‘rsatiladi. Kishining hayoti xavf ostida qolganda, u mast holatda bo‘lsa, qon ketganda, tok urganda, zaharlanishda, koma, shok va boshqa vaziyatlarda darhol birinchi yordam ko‘rsatish zarur.

Keyingi ko‘rsatiladigan tibbiy yordam birinchi yordamning qanchalik to‘g‘ri ko‘rsatilganligiga bog‘liq. Mast holatda, suyak ochiq singanda bog‘lov va shina (taxtakach)ning tez va to‘g‘ri qo‘yilishi (immobilizatsiya), ko‘pincha shok va boshqa og‘ir kasalliklarning oldini olishga, shikastlanib behush yotgan kishini yonboshi bilan yotqizish traxeya va bronxlarga qusuq massasi hamda qon ketib qolmasligiga yordam beradi.

Umrzoq SOBIROV, DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchisi.

Аср вабоси

Гиёҳвандлик балоси

Бу йил мамлакатимиз Мустақилликка эришганлигининг 34 йиллигини кенг нишонлади. Ана шу қисқа муддат ичида дунё аҳли ибрат, ўрнак оладиган жиҳатларга эга бўлдик. Бизга ҳавас қиладиганлар сони қанча кўп бўлса, ҳасад кўзи билан қарайдиган, гуллаб-яшнашимизни кўра олмайдиганлар сони ҳам анчадир.

Аллоҳга шукрлар бўлсинки, ҳаётимиз тинч, фарзандларимиз соғлом, келажагимиз буюкдир. Она Ватан бағрида тинч, осуда ҳаёт кечирмоқдамиз. Дунёнинг тинчлигини бузаётган, одамларнинг бахтли-саодатли яшашини кўролмаётган, ўзгаларнинг бахтсизлиги эвазига бой-бадавлат бўлиб, гўёки ширин ҳаёт кечираётган кимсалар ҳам учраб туради. Булар гиёҳванд моддаларни тайёрлаб, инсонларнинг ширин ҳаётини қайғу ғамларга, аламу ситамларга айлантираётган жоҳил кишилардир.

Маълумотларга кўра, дунёда гиёҳвандлик балосига гирифтор бўлганлар сони кундан-кунга ошиб бормоқда. Энг ачинарлиси, гиёҳвандликка илк бор қадам қўяётганлари эса вояга етмаганлар эканлигидир. Уларнинг ёшлик гаштини сурадиган, ўйнаб-куладиган, илм олиб, юксак чўққини кўзлайдиган даврда бало ва офатга дучор бўлиб гиёҳвандлик ботқоғига ботиши жамиятнинг энг катта йўқотишидир.

Бугунги кунда аср вабосига айланиб улгурган гиёҳвандлик балосидан фарзандларимизни, келажак авлодимизни халос этиш нафақат ота-она, маҳалла, балки ҳар бир соҳа ходимининг бурчи бўлмоғи лозим.

У.АЛИҚУЛОВ, транспортда ХТБ ЖҚБ тезкор вакили, капитан.

Оролбўйи тақдири ва келажаги учун

Муҳим ташаббуслар аҳамияти

(Бошланиши 1-бетда.)

Таъкидлаш жоизки, Президентимиз ташаббуси билан Оролбўйи халқаро инновация марказининг ташкил этилиши ҳам бу борадаги амалий қадамлардан биридир. 2021 йилда БМТ Бош Ассамблеясида Ўзбекистоннинг Оролбўйини экологик инновациялар ва технологиялар ҳудуди деб эълон қилиш ташаббуси илгари сурилиб, барча давлатлар томонидан маъқулланди. Бу қарорлар Ўзбекистоннинг Орол муаммосига алоҳида эътибор қаратаётгани ва халқаро ҳамжамият томонидан қўллаб-қувватланаётганини кўрсатади.

Бугунги кунда Оролбўйи халқаро инновация маркази давлат дастурлари ва халқаро ҳамкорлар билан биргаликда амалий ишлар олиб бормоқда. Марказ томонидан чўл ўсимликларини экиш, кўпайтириш, узоқ муддат генбанкда сақлаш бўйича илмий асосланган технологиялар ишлаб чиқилмоқда. Иқлимга чидамли навлар маҳаллий шароитга мослаштирилмоқда. Шунингдек, Оролбўйидаги чўлланишга қарши курашиш жараёнларига инновацион ёндашувлар жорий этилмоқда. Марказ фаолияти натижасида биохилмахилликни асраб-авайлаш мақсадида уруғлар генбанки ташкил этилган, тупроқ шўрланишини камайтириш ва аҳоли турмуш шароитини яхшилашга хизмат қиладиган илмий-амалий лойиҳалар йўлга қўйилди.

Шу билан бирга, сув ресурсларининг тобора тақчил бўлиб бораётгани барқарор ривожланишга жиддий хавф сифатида баҳоланди. Президентимиз томонидан Ўзбекистонда сувни тежаш бўйича Бутунжаҳон форумини ўтказиш ташаббуси илгари сурилиб, унинг якунида глобал миқёсда сув инқирозини бартараф этиш учун инновацион технологияларни жорий этишга қаратилган махсус “йўл харитаси”ни қабул қилиш режалаштирилмоқда. Бу борада ҳам марказ турли илмий тадқиқотлар олиб бориб, сувни тежаш технологияларини маҳаллий қишлоқ хўжалиги тизимига жорий этиш, қайта тикланадиган сув манбаларини ўрганиш ва халқаро экспертлар билан тажриба алмашиш ишларини амалга оширмоқда.

Ўтган давр мобайнида марказ илмий тадқиқотлар олиб бориш ва лойиҳаларни амалга ошириш жараёнида бир қатор халқаро ва маҳаллий ташкилотлар, шунингдек, илмий-тадқиқот институтлари билан самарали ҳамкорлик алоқаларини йўлга қўйди. Жумладан, 70 дан ортиқ хорижий ва маҳаллий ташкилотлар билан ҳамкорлик тўғрисида битим ва меморандумлар имзоланиб, 20 дан ортиқ илмий-амалий ва инновацион лойиҳа амалга оширилмоқда. Бу лойиҳалар муқобил яшил энергия, аквакультура, интенсив боғдорчилик, доривор ўсимликлар етиштириш, ресурс тежовчи технологиялар ва ижтимоий дастурларни қамраб олган. Амалга оширилаётган лойиҳаларнинг ҳар бири Оролбўйи учун узоқ муддатли ечимларни яратишга қаратилган.

Халқаро ҳамкорлар қаторига БМТ Тараққиёт дастури (UNDP), Шўрланиш шароитида биодеҳқончилик халқаро маркази (ICBA, БАА), Синсзян экология ва география институти (Хитой), Германия халқаро ҳамкорлик жамияти (GIZ), Глобал яшил ўсиш институти (GGGI), Корея халқаро ҳамкорлик агентлиги (KOICA), Япония халқаро ҳамкорлик агентлиги (JICA) ва бошқа нуфузли ташкилотлар киради.

Иқлим ўзгариши оқибатида аҳолининг мажбурий кўчиши (миграцияси) ортиб бораётгани инсоният олдида турган яна бир катта хавфдир. Бу борада ҳали аниқ халқаро механизмлар йўқлиги алоҳида таъкидланди. Шу муносабат билан, Президентимиз ушбу муаммони ҳал этиш мақсадида кенг халқаро ҳамкорликка асосланган Глобал пактни қабул қилиш ташаббусини илгари сурди.

Президентимиз томонидан билдирилган бу ташаббуслар нафақат миллий, балки глобал аҳамиятга эга бўлиб, уларнинг барчаси умумий келажагимиз учун хизмат қилади. Шу билан бирга, Оролбўйи халқаро инновация маркази томонидан олиб борилаётган илмий-амалий ишлар ҳам ушбу ташаббусларнинг ҳаётга изчил татбиқ этилиши ва амалдаги натижадорлигини таъминлашга хизмат қилади. Марказ ўзининг истиқболдаги режаларида халқаро шериклик кўламини янада кенгайтириш, экологик барқарорликни таъминлаш мақсадида инновацион экотехнологияларни, жумладан, чўлланишга қарши чоралар ва ақлли қишлоқ хўжалиги ечимларини жорий этишни кўзда тутади.

Президентимизнинг Оролбўйида амалга оширилаётган тикланиш ишлари, Сув форуми ташаббуси ва иқлим миграцияси бўйича Глобал пакт ғояси ва бошқа ташаббус ва таклифлари жаҳон ҳамжамиятининг барқарор ривожланишига қаратилган муҳим қадамдир. Энг муҳими, Президентимизнинг БМТ Бош Ассамблеясидаги нутқи халқаро ҳамжамият томонидан катта қизиқиш билан кутиб олинди ва Ўзбекистоннинг ташаббускор етакчи давлат сифатидаги нуфузини янада мустаҳкамлади.

Довуд АБИБУЛЛАЕВ,
ЎзА мухбири.

Prezident farmonlari talqini

MAQSAD–ODIL SUDLOVGA ERISHISH

yoxud sudlar faoliyatida sun`iy intellekt texnologiyalarini joriy etish hamda raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish xususida

Mamlakatimizda sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, fuqaro va tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, odil sudlovga erishish darajasini oshirish va odil sudlovni samarali ta’minlashga qaratilgan amaliy ishlar olib borilmoqda. Shu asnoda sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish choralari ko‘rilmoqda va bu borada ko‘plab qonun hujjatlari qabul qilinib, sud-huquq sohasini xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda isloh qilishga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda.

Bu borada olib borilayotgan islohotlar va ko‘rilayotgan chora-tadbirlarning davomi o‘laroq, aniqrog‘i, joriy yilning 21 avgust kuni davlatimiz rahbari tomonidan sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish, odil sudlovga erishish darajasini oshirish va bu sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish borasidagi yana ikkita muhim hujjat qabul qilindi. Bular “Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-140-son va “Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-141-son farmonlaridir.

Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish hamda raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, shuningdek, sudlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishning kelgusi yillardagi ustuvor maqsadlari etib quyidagilar belgilandi:

jumladan, sud ishlarini yuritishda qog‘oz shaklidan voz kechish maqsadida “Raqamli sud” konsepsiyasi asosida ishlarning yuritilishini bosqichma-bosqich to‘liq elektron shaklga o‘tkazish;

fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga ko‘rsatiladigan interaktiv elektron xizmatlar turlarini oshirib borish, sud hujjatlaridan nusxa olish, sud ishlari bilan tanishish, arizaning sudga taalluqliligi va sudlovga tegishliligini aniqlash, sun’iy intellekt yordamida sud xarajatlarini hisoblash imkoniyatini yaratish, shuningdek, sud tomonidan taqiqlangan manba va kontentlarning elektron reestrini yuritish;

sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun zarur texnik infratuzilma yaratish, shuningdek, ushbu yo‘nalishdagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish;

Oliy sudning axborot tizimlari negizida sud hujjatlari arxivi modulini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

sudlar faoliyatini raqamlashtirish bo‘yicha “Kiber huquq” yo‘nalishida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, shuningdek, sudyalar va sud apparati xodimlarining raqamli savodxonligi va malakasini doimiy oshirib borish;

iqtisodiy sudlar tuzilmasini optimallashtirish orqali ularning faoliyati samaradorligini oshirish va yagona sud amaliyotini shakllantirish;

“Raqamli sud” konsepsiyasi asosida bosqichma-bosqich sud majlisi zallarini tashkil etish hamda aholi va sudyalar uchun qulay va zamonaviy shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, sudyalar va sud xodimlarining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish ko‘zda tutilgan.

Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga qulayliklar yaratish hamda sud ishlarini ko‘rishni soddalashtirish maqsadida quyidagilar belgilandi, xususan, “Raqamli sud” konsepsiyasini amalga oshirish doirasida:

sudga ariza berishdan oldin sun’iy intellekt yordamida sud muhokamasining taxminiy natijasi hamda sarflanadigan xarajatlar shakllantiriladi;

murojaatlar sudga elektron shaklda yuboriladi;

ishda ishtirok etuvchi shaxslar sud binosiga tashrif buyurmaydi va sud muhokamalarida masofadan turib ishtirok etadi;

taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga sud jarayonlarida ishga doir barcha materiallar bilan elektron shaklda tanishish imkoniyati yaratiladi;

sud xarajatlari elektron shaklda hisoblanadi va to‘lanadi, shuningdek, ijro varaqalari avtomatik ravishda ijroga yuboriladi;

sud ishlari zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda to‘liq elektron tarzda yuritiladi;

sun’iy intellekt yordamida sud majlisi bayonnomalari real vaqt rejimida matn shaklida tayyorlanadi;

sud hujjatlari loyihalari avtomatik shakllantiriladi.

2025-yil yakuniga qadar, tajriba tariqasida Toshkent shahrida “Raqamli sud” konsepsiyasi asosida iqtisodiy, fuqarolik va ma’muriy nizolarni ko‘rishga mo‘ljallangan sud majlisi zallari tashkil etiladi. Shuningdek, Farmon bilan sud sohasini raqamlashtirishning istiqboldagi rejalari belgilanib, 2025-2027-yillarga mo‘ljallangan sud sohasini raqamlashtirish va odil sudlov jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish dasturi tasdiqlandi.

Dasturda quyidagilar nazarda tutilgan:

2025-yil 1-dekabrdan boshlab fuqarolar, advokatlar, yuristlar, sudyalar uchun normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish platformasini ishga tushirish;

2025-yil yakuniga qadar sud hujjatlarini avtomatik tayyorlash maxsus axborot dasturini yaratish;

2026-yil 1-yanvardan boshlab “my.sud.uz” interaktiv xizmatlar portalida fuqarolarga huquqiy yordam ko‘rsatish modulini joriy etish, bunda sun’iy intellekt asosida ishlaydigan virtual maslahatchini yaratish, huquqiy murojaatlarga javob berish hamda sud ma’lumotlarini avtomatik yetkazish;

2026-yil 1-martdan boshlab fuqarolik, ma’muriy, iqtisodiy va ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha dastlabki sud ma’lumotlarini fuqarolarga Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali olish imkoniyatini yaratish;

2026-yil yakuniga qadar fuqarolarga odil sudlovga erishishda qulay imkoniyatlar yaratish maqsadida 5 ta yangi interaktiv xizmatlarni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, sudning axborot tizimidagi “Shaxsiy kabinet” platformasining foydalanuvchilar uchun yanada qulay bo‘lgan yangi versiyasini ishlab chiqish.

Farmonga asosan Oliy sud, Sudyalar oliy kengashi va Savdo-sanoat palatasining 2026-yil 1-yanvardan boshlab iqtisodiy sudlar tizimida iqtisodiy sudlarni maqbullashtirish orqali tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlarini tugatish hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida tumanlararo iqtisodiy sudlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha tashkiliy-tuzilmaviy o‘zgarishlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullandi.

Qolaversa, Farmon bilan 2025-2030 yillarda sud binolarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Bunda yangi sud binolarini qurishda va mavjudlarini mukammal ta’mirlashda “Raqamli sud” konsepsiyasi asosida sud majlisi zallarini tashkil etish hamda aholi va sudyalar uchun qulay va zamonaviy shart-sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratilishi belgilandi.

Shu bilan birga Farmonda 2025-2030-yillarda sud sohasini raqamlashtirish hamda sud binolarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika va hududiy ishchi komissiyalar tashkil etilishi nazarda tutilib, Respublika ishchi komissiyasiga mazkur Farmonda belgilangan chora-tadbirlar va topshiriqlar bajarilishini ta’minlash bo‘yicha tegishli vazifalar yuklatildi.

N.SHARIPOVA,
Termiz tumanlararo ma’muriy sudi sudyasi.

Миллатимиз таомиллари

ОЛИШ ВА КЎПКАРИНИНГ ҲАМ ОДОБИ ВА ОРИ БЎЛАДИ

Сурхондарё полвонлар, чавандозлар юрти, эр йигитлар диёри, дея улуғланади. Курашни биз олиш деб атаймиз. Болалик даврларимизда кўпинча тўйларда кураш кечаси бўларди, ўртага дарахтнинг кундасини ёқиб, ёруғида олиш қилишарди. Томошабинлар орасида оппоқ соқолли нуронийлардан тортиб, мактаб ёшидаги болалар ва қиз-жувонлар ҳам бўларди. Қаранг, миллий курашимиз бўйича мусобақалар жаҳон миқёсида ўтказилмоқда!

Шунинг баробарида тўйларда ҳам олиш ва кўпкарилар қайтадан русумга кирмоқда. Олишнинг полвони, кўпкарининг чавандози (чобағони) яна улуғланди, эъзозланди. Ҳозир бутун-бутун қишлоқларда ёшлар тўгаракларга қатнашиб, моҳир полвонларнинг қўлида кураш сирларини ўрганмоқдалар. Табла (отхона)ларда отлар боқилмоқда. “От қадрини қайдан билсин от минмаган эркаклар...”, “От минмаган йигитни хушламайди қизлар ҳам...” каби лапарлар яна янграй бошлади.

Бойсун-Пулхокимда Абдурайим узун “Чобағон номи” билан кўпкари соҳасида ўзига ҳайкал ясаб кетди, десам чобағоннинг кўплаб мухлислари бор-ки, муболағага йўймайди. Баковул билан зот талашмас, бировнинг отини миниб, улоқ айириб, отнинг сотув нархини ошириб бермасди.

Кўпкари отлари бозорда сотилмайди, унинг бозори кўпкари майдони, нархи эса бир тўйда нечта зот айириши (ҳалоллаши)га боғлиқ. Бу темир қоида асрлар оша амалий тартиб бўлиб келмоқда. Қадимда, ҳатто бир қишлоқнинг полвонини бегона жойдан келиб йиқитиб кетишларини ҳазм қилолмаган одамлар.

Ўз даврида нафақат Бойсунда, балки Сурхондарёда донғи кетган Қосим полвон олишини ҳозиргача одамлар хўп ва кўп эслашади. Даврага тушмаган йигитни «шубҳали» ҳисоблашар эди, у замонларда. Ғирромлик қилаётганларни, ор учун эмас, молу-соврин учун даврага тушаётганларни, ўзаро келишиб кураш тушаётганларни ҳеч ким хушламасди. Улардан ҳақиқий эркакча кураш кутиб, томоша қилиб ўтирган ҳалол кураш санъати ихлосмандлари ҳам уларни нафсумол оворалари дея баҳоларди.

Хаёлим беихтиёр ёшлик йилларимга қочади. Ғаройиб, софдил, оркаш полвонларни кўрганман. Қишлоғининг шаъни учун ҳеч нарсадан қўрқмайдиган, ҳеч кимдан топ тортмайдиган, шерюрак, ҳалол полвонларнинг даврасини кўрганман.

Аниқ эсимда, 1980 йиллари эди. Бир воқеа хотирамда михланиб, жойлашиб қолган. Ўшанда Пудина қишлоғида катта олиш бўлган эди. Даврага товоқ ташланди. Ана шунда дуогўй оқсоқоллар имо-ишораси билан даврадагиларнинг бири курашнинг бош баковули Қосим полвон номига бош товоқ рамзини кўтарди. Таомил шундай эди: товоқни кўтармаса, қишлоқнинг обрўсига путур етади, қолаверса, жийдали Бойсунда тўйчининг тўйи, курашининг бош полвони, бош товоқ зоти узоқ-узоқ йиллар гурингу-гаштакларда суҳбатнинг асосий мавзуси бўлади.

Қосим полвон товоққа эга чиқиши билан унга талабгор ҳам пайдо бўлди: Шоберди чобағон! У кўпкарида ўрни ва ўз мухлисига аллақачон эришган, ўз мавқеига эга чайир йигит. Алининг майдонида темир тартиб бор. Товоқ кўтарилган. Талабгор бор - вассалом. Ана олишнинг қизиғи. Бу орада кураш удуми–товоқ кўтарган даврага биринчи бўлиб айланиши таомили ҳам топталди. Қосим полвонни кутмай Шоберди чобағон кураш майдонида пайдо бўлди. Даврани маҳтал қилишни гуноҳ билган Қосим полвон баковуллигини тасдиқловчи белбоғини ечиб, кураш желагини эгнига илиб чиқди, афтидан, ҳеч ким ҳатто ўзи ҳам кураш тушишига ишонмасди.

Дуогўй оқсоқоллару томошабинлар жунбушга келди. Уларни таништиришга ҳеч ким ботинмади, зот айтилмади ҳам. Қандайдир андиша бутун даврани қамраган эди. Кимдир бу майдон Алпларники: даврада отангни аяма деса, кимдир зўр аниқ бўлсин каби пичинг, шивиршивирлар бошланди. Бироқ Шоберди

чобағон давранинг кайфияти билан ҳисоблашмасдан, полвонни ола кетди. Ёш барибир ёш-да. Икки-уч қўл олишгандан кейин Қосим полвоннинг ҳоригани билинди. Бунинг устига, Шоберди чобағон ўзининг «кимлигини кўрсатиб қўймоқчи» бўлдими, Қосим полвонни аёвсиз эзғилаб ташлади.

Бироқ кекса полвон ҳам бўш келмасди. Гарчи чарчаб, ҳансираб қолган бўлса-да, Шоберди чобағонга муносиб рақиб бўлиб турди. Бу орада давра аҳли норози гуврана бошлади. Шоберди чобағон шаънига паст-баланд гаплар айтила бошланди. Шунда давра оқсоқоллари одилона бир иш қилишди. Оқсоқоллардан бири ўртага чиқиб, тўй эгасига дуо бериб юборди, демак кураш дуранг бўлди. Қосим полвоннинг шогирдлари отилиб чиқишди-да, «Йўлбарснинг қариси бўлмаскан, у доим йўлбарс», деб полвонни олқишлашди.

Шунга яқин манзарани 1990 йилларда ҳам кўрганман. Ўшанда ҳам тўй Пудина қишлоғида бўлган эди. Адашмасам, Ҳайдар Чориев олиш берганди. Кураш бўйича 1-жаҳон чемпиони Тоштемир полвон 20 ёшлардаги талаба бўлиб, давраларда кўрина бошлаган, акаси Худойберди полвон эса аллақачон катта полвон сифатида ном чиқарган бўлсада, яқиндагина касалхонадан чиққан. Врачлар унга наинки кураш тушишни, ҳатто силтаниб юк кўтармасликни қатъий тавсия қилганидан бутун Бойсун эли хабардор.

Даврада Худойберди полвон баковуллар орасида олишни томоша қилиб ўтирарди. Давранинг баковули Қосим полвон «Худойбердининг ҳурмати», - деб номига товоқ ташлади. Шундай таомил ҳам бор. Оқсоқоллар Қосим полвонга қараб, бекор қилдингиз шу ишни, Худойбердига олишиш мумкин эмас, дея бош чайқашди. Лекин Қосим полвон Худойбердининг ёқасига қўли етадиган четдан полвон келмаган, талабгор чиқмайди, дегандай ишора қилди.

Таомилга кўра, Худойберди полвон даврага чиқиб кўриниш берди. Даврани айланиб чиқди. “Яратган соғлигини берсин, яна курашга қайтиб элу-халққа томошалар кўрсатиб юрсин, талабгор бўлмаса зотини берамиз”, - деди баковул. Шу пайт кимдир: “бош тобоқни кўтарган полвон даврани айлансин, талабгор бор”, - деди.

Худойберди полвон билан бир қишлоқлик, Сурхондарёда оркаш тоқчи-чобағон дея ном чиқарган ўша Чори чобағон талабгор бўлиб, Худойбердининг изидан ўртага чиқди. Оқсоқоллар билан ёши катта одамлар саросимага тушиб қолишди. Шунда Қосим полвон: «Ўв, халойиқ, полвон халқи тобоқ кўтардими, чиқади! Чиқмаса бўлмайди. Алининг майдонининг ҳукми-тартиби”,- дея зотини эълон қилди.

Кураш бошланди. Кексалардан дуо олишди. Одамлар қийқиришиб, далда бўлишмоқда. Нафс ўлсину - одамгарчилик ўлмасинда, кекса томашабинлар курашни якунлаб юборишни ишора қилишарди. Чори чобағон бир тантилик қилди. Ўртада айланиб юриб, Худойберди полвоннинг чилларига, усулларига чап бериб, ўзини олиб қочди-да, ҳужум қилмади. Полвонни илкис силкимади. Шунда Қосим полвон полвонларга ҳам, томошабинларга ҳам, тўй эгасига ҳам дуо бериб юборди. Қаранг, полвон лафзсиз ҳам бўлмади, озор ҳам чекмади. Мен полвон деганда ана шундай танти, ҳалол, оркаш, сўзига-лафзига собит одамларни тушунаман.

Бойсун туманининг Пулхоким қишлоғида яшаб, олиш ва кўпкарининг одоби, тартибига ибратли риоя қилиб, халқнинг қалбидан ўрин эгаллаган Қосим полвон ва Абдурайим узун чобағоннинг руҳлари шод бўлсин. Айбситманг-ки, битикдаги қаҳрамонларим Мустақиллик даврида бўлгани-да, жаҳон чемпиони бўлиб, Ўзбекистонимиз байроғи остида мадҳиямизни тингларди!

Жуманазар МАДИЕВ,
Бутунжаҳон халқ ижодкорлари уюшмаси аъзоси, “Дўстлик” ордени соҳиби, Бандихон тумани тиббиёт бирлашмаси шифокори, Соғлиқни сақлаш аълочиси.